

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

MILLIY ADABIYOT DAVRINING YO'LBOSHCHI SHOIRI ZIYO GO'KALP
SHE'RIYATI*Nigora Azizova**Tayanch doktorant,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ziyó Go'kalp, milliy adabiyot, ma'rifatparvarlik, turkchilik, vatan, she'riyat, vazn, misra, yosh qalamkashlar, tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada turk ma'rifatparvar shoiri Ziyó Go'kalp ijodi, xususan, vatan mavzusidagi she'rlari tahlil qilingan. "Turon" ("Türân"), "Vatan" ("Vatan"), "Turkchilik" ("Türklük") singari she'rlari shuningdek, "Qo'lsiz xonim" ("Kolsuz Hanım") nomli ertagining mohiyati, g'oyasi va mazmuni o'rganilgan. Ziyó Go'kalp she'rlaridagi ichki kechinmalar, turk xalqining hayoti, tarixi va kelajagi, sevinchi va iztirobi qanday ifoda etilgani misollar bilan sharhlab berilgan. Tarixiy shaxslar asosida yaratilgan lirik qahramonlarning vatanparvarligi, yurt ravnaqi yo'lidagi fidoiyligi, mardligi va jasorati yosh avlodga ibrat qilib ko'rsatilgani ham tilga olingan. Shoirning hayot yo'li, ijodiy merosi haqida ham ma'lumot berilgan, uning turk tili va adabiyotiga qo'shgan hissasi ilmiy tadqiq etilgan. Milliy adabiyot davrining dastlabki jurnali hisoblangan "Yosh qalamkashlar" ("Genç Kalemler") faoliyatidagi o'rni ham maqolada zikr etilgan. Shoirning turkchilik haqidagi qarashlari ilmiy-badiiy asarlari tahlili misolida ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, turk adabiyotshunoslarining shoir ijodi haqidagi fikr-mulohazalariga ham alohida e'tibor berilgan.

THE POETRY OF ZIYA GOKALP, THE LEADING POET OF THE NATIONAL
LITERATURE PERIOD*Nigora Azizova**PhD student,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ziya Gokalp, national literature, enlightenment, Turkishness, homeland, poetry, weight, verse, young poets, analysis.

Abstract: This article analyzes the work of the Turkish enlightened poet Ziya Gokalp, especially his poems on the theme of the homeland. Poems such as "Turon" ("Türân"), "Homeland" ("Vatan"), "Turkishness" ("Türklük"), as well as the essence of the fairy tale "Miss without hands" ("Kolsuz Hanım"), source and content are studied. The inner experiences in Ziya Gokalp's poems, the life, history and future, joy and suffering of the Turkish people are described with examples. It was also mentioned that the patriotism, selflessness, bravery and courage of the lyrical heroes created on the basis of historical figures were shown as an example to the young generation. Information about the poet's life path, creative heritage, and his contribution to the Turkish language and literature were scientifically researched. The role of "Young writers" ("Genç Kalemler"), considered the first magazine of the period of national literature, is also mentioned in the article. An attempt was made to reveal the poet's views on Turkishness on the basis of the analysis of his scientific and artistic works. Attention was also paid to the opinions of Turkish literary experts about the poet's work.

ПОЭЗИЯ ЗИЯ ГОКАЛПА, ВЕДУЩЕГО ПОЭТА ПЕРИОДА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Нигора Азизова

Докторант,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Зия Гукалп, национальная литература, просвещение, тюркизм, родина, поэзия, стих, стихосложение, молодые писатели, анализ.

Аннотация: В данной статье анализируется творчество турецкого поэта-просветителя Зия Гукалпа, в особенности его стихи на тему родины. Исследованы сущность, идея и содержание стихотворений «Туран» ("Türân"), «Ватан» ("Vatan"), «Тюркизм» ("Türklük"), а также сказки «Женщина без рук». На примерах, взятых из стихов Зия Гукалпа описываются внутренние переживания, жизнь, история и будущее, радость и страдания турецкого народа. Также было отмечено, что патриотизм, самоотверженность, отвага и мужество лирических героев, созданных на основе исторических личностей, были показаны в пример молодому поколению. Были научно исследованы сведения о жизненном пути поэта, творческом наследии, его вкладе

в турецкий язык и литературу. В статье упоминается также роль журнала «Молодые писатели» (“Genç Kalemler”), считающегося первым журналом периода национальной литературы, в деятельности поэта. Сделана попытка выявить взгляды поэта о тюркизме на основе анализа его научных и художественных произведений. Также особое внимание было уделено мнению турецких литературоведов о творчестве поэта.

KIRISH

Ziyo Go‘kalp Turkiya mustaqilligining dastlabki yillarida nashr qilingan “Turkchilik asoslari” asari bilan yangi boshlangan davrni shakllantirgan eng yirik ma’rifatparvar edi. U ham bir qator turk ziyolilari kabi badiiy va ilmiy ijodga usmonli millatchisi sifatida kirib kelgan bo‘lib, 1911-yilda “Yosh qalamkashlar” jurnalida chop etilgan “Turon” manzumasi bilan turkchilikka qadam tashlaydi.¹ Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Turkchilik aslida qanday harakat va uning mohiyati nimalardan iborat edi? Turkchilikning mohiyatini quyidagilar tashkil etadi:

- a) turkiy xalqlarning kelib chiqishi bir;
- b) ular dunyoning eng qadim millatlaridan;
- v) ular dunyoning eng madaniyatli millatlaridan;
- g) bugungi zalolat va jaholat ularning sha’niga nomunosib;

d) bugun ular zamon bilan baravar qadam tashlamoqlari kerak, ya’ni: o‘zlarini anglamoqlari, bir-birlariga suyanmoqlari, eski sha’n-shavkatlarini tiklamoqlari lozim. Go‘kalp fikricha, turkchilik “turk ulusini yuksaltirmoqdir”, unda boshqa, ikkinchi bir millatning nafsoniyatiga daxl qiladigan ma’no yo‘q. Darhaqiqat, Ziyo Go‘kalpning bu fikrlari bugun ham eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Turkiy xalqlar bir-biri bilan yanada ahil, yanada yaqin bo‘lish maqsadida ham iqtisodiy, ham siyosiy sohada hamjihat va hamfikir bo‘lib kelmoqdalar. Ilm ahli egalari hamkorlikda turkiy xalqlar tarixi, adabiyoti va san’atini kengroq o‘rganish maqsadida ilmiy-amaliy seminarlar, xalqaro loyihalar, tadqiqotlar olib bormoqdalar. Bundan maqsad Ziyo Go‘kalp ta’biricha, “turk ulusini yuksaltirmoqdir”, shu bilan birga o‘zlarini anglamoqlari, bir-birlariga suyanmoqlari, eski sha’n-shavkatlarini tiklamoqlari lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turk adabiyotshunosligida Ziyo Go‘kalp ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud bo‘lib, uning she’riyati va xalq ertaklari,² hayot yo‘li va ijodiy merosi³ haqida ilmiy tadqiqot va monografiyalar chop etilgan. F.F.Ozerning “Ziya Gökalp‘in Şiir ve Mektuplarında Kadın ve Çocuk Eğitimi”⁴ nomli dissertatsiyasida shoir she’riyati va maktublarida ayol va bolalar ta’limi haqida fikr yuritilgan. A.Namazovanning “Ziya Gökalp ve Bahtiyar Vahapzade‘nin Şiirlerinde Vatan Mefhumu”⁵ dissertatsiyasida Ziyo Go‘kalp she’rlarida vatan mavzusining badiiy ifodasi tadqiq etilgan. O‘zbek adabiyotshunosi

¹ Korkmaz R. Yeni Türk Edebiyatı (1839-2000). Grafiker Yayınları, Ankara -2015. -S.219.

² Tansel F.A. Ziya Gökalp Külliyyatı-I. Şiirler ve Halk Masalları. Türk Tarih Kurumu Basımevi, Ankara -1989. -S.432.

³ Tuncay H. Ziya Gökalp. Toker Yayınları. İstanbul-1978. -S.240.

⁴ Özer F.F. Ziya Gökalp‘in Şiir ve Mektuplarında Kadın ve Çocuk Eğitimi. Yüksek Lisans Tezi. Pamukkale Üniversitesi, 2007. -S.62.

⁵ Namazova A. Ziya Gökalp ve Bahtiyar Vahapzade‘nin Şiirlerinde Vatan Mefhumu. Yüksek Lisans Tezi. İstanbul Kültür Üniversitesi, 2017. -S.79.

P.Kenjaye vaning “Zamonaviy o‘zbek va turk she‘riyatida uslub tipologiyasi”⁶ maqolasida o‘zbek shoiri Oybek she‘rlari Ziy o Go‘kalp ijodi bilan qiyosiy o‘rganilgan.

TADQIQOTNING USULLARI

Milliy adabiyot davrining yo‘lboshchi shoiri Ziy o Go‘kalp she‘riyatini o‘rganishda qiyosiy-tarixiy va adabiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shoirning “Turon” (“Türân”) she‘rini tahlil qilishda qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan, “Vatan” (“Vatan”) she‘ridagi mohiyatni ochishda adabiy-estetik metod yo‘llari va usullaridan keng foydalanilgan.

NATIJALAR

Turk ma‘rifatparvar shoiri Ziy o Go‘kalp qisqa umr ko‘rdi, ammo turk ma‘rifatparvarlik adabiyotida yorqin iz qoldirdi. Millat dardi, millat qayg‘usi, millat kelajagi har doim uning she‘rlarida o‘z aksini topdi. U bu borada Umar Sayfiddin va Ali Jonib bilan birgalikda 1911-yilda “Yosh qalamkashlar” jurnaliga asos soldi. “Yangi lison” harakatining yo‘lboshchi ma‘rifatparvarlaridan biri edi. Ma‘lumki, “Yangi lison” harakati “Yosh qalamkashlar” jurnali atrofida birlashgan adabiyotshunoslar vujudga keltirgan tilda sodd alashuv harakatidir. “Yosh qalamkashlar” jurnali atrofida yig‘ilib, “Yangi lison” harakatini boshlaganlar davrning turkchilik harakati faoliyatini yuritgan ijod va mutafakkir kishilaridir. 1911-yilda Salonikida “Yosh qalamkashlar” atrofida yig‘ilgan yangi lisonchilar dastlab “Milliy adabiyot” atamasini ham tilga oldilar. Umar Sayfiddin, Ziy o Go‘kalp, Ali Jonib, Akil Kuyunji boshchiligidagi yangi lisonchilar “Milliy adabiyot milliy til bilan yaratiladi” qarashini himoya qiladi va turk tilining sodd alashishi uchun mazkur qoidani qabul qiladilar:

1. Arabcha va forscha grammatik qoidalardan foydalanmaslik, bu qoidalar asosida yaratilgan so‘zlardan voz kechish;
2. Arabcha va forscha so‘zlarning turk tilidagi talaffuzida yozilishi;
3. Boshqa turk shevalaridan so‘z olmaslik;
4. Istanbul shevasi asosida yangi adabiy tilni yuzaga keltirish;
5. Til va adabiyotning Sharq-G‘arb taqlidchiligidan xalos bo‘lishi.

Turk shoir, yozuvchi va mutafakkirlari orasida qisqa muddat ichida tarqalgan bu yangi til va milliy adabiyot tushunchasi adabiy oqim holiga kiradi va davrning aksariyat shoir va yozuvchilari shu qarash asosida asarlar yozdilar. Bu davrda sodda tilda asarlar yozgan shoir va yozuvchilardan ba‘zilari Umar Sayfiddin, Ziy o Go‘kalp, Faruk Nafiz (Chamlibel), Holid Faxri (Ozansoy), Orxon Seyfi (Orxon), Yusuf Ziy o (Ortach), Enis Behich (Koryurek), Holid Adib (Adivar), Yoqub Qodri (Qorausmonoo‘g‘li), Refiq Xolid (Qoroy), Reshad Nuri (Guntekin), Yahyo Kemal (Beyatli)dir⁷. “Yosh qalamkashlar” jurnali dunyo yuzini ko‘ra boshlagan yili, ya‘ni 1911-yilda zamonaviy turk adabiyotining yangi davri – Milliy adabiyot davri boshlanadi. Bu davr Ziy o Go‘kalp ijodining ayni gurkiragan yillariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, uning “Turon” she‘ri yangi davrning yangi va ma‘rifatparvarlik, vatanparvarlik ruhida yozilgan she‘rlaridan biri bo‘lib tarixda qoldi. Bu she‘rning yozilish jarayoni haqida o‘zbek jadidshunos olimi shunday fikr bildirgan edi: “Ziy o Go‘kalp 1896-yilda ilk bor Istanbulga kelganida fransuz tarixchisi Leon Jaxun (1841-1900)ning o‘sha yili chop etilgan “Osiyo tarixiga kirish. Turklar va mo‘g‘ullar” kitobi unga qattiq ta‘sir ko‘rsatgan va shu taassurotlar asosida “Turon” she‘rini

⁶ Kenjaye va P. Zamonaviy o‘zbek va turk she‘riyatida uslub tipologiyasi // “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. T-2018. -B.381-388.

⁷ Yelo‘q V.S., Kenjaye va P. Kutilmagan mehmon. “Akademnashr” nashr., T-2011. -B.28.

yoʻzganini ma'lum qiladi.”⁸ Shoirning bu she'rini turkiyshunoslikka kirish desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Shoir she'rida tarix bilan bir qatorda insonlarga nisbatan qarshilik ko'rsatayotgan buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashadi. Qalbining tub-tubida joylashgan ichki kechinmalar quyidagi parchada o'z aksini topadi:

*Nabızlarımda okur, anlar, yeylerim tebcil.
Sahifelerde değil, çünkü Atilla, Cengiz.*

*Zaferle ırkımın tetviç yeden bu nasieler,
O tozlu çerçevelerde, o iftira amiz.*

*Muhit içinde görünmekte kirlı, şermende;
Fakat şerefle numayan Sezar ve İskender!*

*Nabızlarımda yevet, çünkü ilm için müphem
Kalan Oğuz Han'ı kalbim tanır tamamiyle.*

*Damarlarımda yaşar şan-ü ihtişamıyle
Oğuz Han, işte budur gönlümü yeden mülhem:*⁹

Tarjimasi:

*Qalbim ham his qilar, tushunar, kutar
Sahifalardamas, chunki Atilla va Chingiz.*

*G'alaba ortidan toj kiygan bu chehralar,
O'sha vayronalar, o'sha tuhmat toshlari.*

*Maydonda aks etgan o'sha sharmandachilik,
Faqat sharaf bilan namoyondir Sezar va Iskandar.
Mening qalbim albat, ilm uchun abadiy qolar,
Unutilmas O'g'uzxonni qalbim doim his qilar.*

*Tomirlarimda yashaydi shon-u sharafla,
O'g'uzxon, aynan bu ko'nglimni aylar doim shod.*

She'rdagi shoirning maqsadi turk tarixi va uning asoschilari hisoblangan xonlar, xoqonlar, tarixiy qahramonlarni sharqona ifodalashdan iborat. Shu ma'noda, Sharq va G'arb imperialistlari, ya'ni mustamlakachilarning qarashlarini aks ettiruvchi tarix tushunchasi Atilla va Chingizxonni inkor etib Sezar va Iskandarni sharaf bilan eslaydi. Tarixga bir tomonlama qarash shoirning ruhiyatiga ta'sir etadi. Chunki, turklar tarixning har bir qadamida uchraydi. Turklar bo'lmagan yoki nomlari zikr etilmagan hech bir davr yo'q. Shunday ekan, bu sharaflı o'tmishga taslim bo'laslikning iloji yo'q. G'arb sharqshunoslari tarixida Iskandar va Sezarni sharaf bilan eslar ekan, Atillani istilochi, Chingizxonni esa talon-taroj qiluvchi shaxs sifatida ko'rsatadi.

⁸ Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. "Ma'naviyat" nashr., T-2002. -B.88.

⁹ Akyüz K. Batı Tesirinde Türk Şiiri Antalojisi (1860-1923). İstanbul-1971. -S.692.

Ammo, turk xoqoni bo'lgan Atilla, yana bir tomondan turk avlodidan bo'lgan Chingizxonning tarixiy yurishlari G'arbga yo'naltirilgan edi. Xolbuki, Iskandar va Sezar xududlarini bosib olish uchun qo'ldan kelgancha harakat qilgan. Tarixchilar uchun yashirin bo'lib kelgan O'g'uzxon shoir tomlarida meros bo'lib qolgan genetik iste'dodni yuzaga chiqaradi. Shoir turkiy xalqlar birdamligi uchun kurashgan O'g'uzxonning vatan yo'lidagi ilgari surgan qarashlari bilan she'rga xotima yasaydi, ya'ni:

*Vatan ne Türkiedir Türklere, ne Türkistan
Vatan, büyük ve müebbet bir ülkedir: Turan¹⁰*

Tarjimasi:

*Vatan na Turkiyadir turkiylarga, na Turkiston,
Vatan, buyuk va umrboqiy bir o'lkadir: Turon*

She'ning konflikt nuqtasi mazkur satrlarda o'z aksini topgan bo'lib, unda shoir oldiga qo'ygan maqsadni yaqqol namoyon etadi. Tarixdan ma'lumki, Turon o'lkasining ozodligi va buyukligi sohibqiron Amir Temurning ham eng katta maqsadlaridan biri bo'lgan, shu bois ham "Biz kim – mulki Turon, amiri Turkistonmiz! Biz kim – millatlarning eng ulug'i, turkning bosh bo'g'inimiz", - degan shiorni ilgari surgan. Shu ma'noda Turon o'lkasi turkiy xalqlarning azaldan orzu qilgan maskani, vatani hisoblangan. Ziyo Go'kalp ham bu she'ri orqali turkiy xalqlarni birdamlikka, hamjihatlikka chorlaydi. Shoir ijodida ona-vatan mavzusiga bag'ishlangan qator she'rlari bor. Barchaga yod bo'lib ketgan shunday she'rlaridan biri "Vatan" she'ridir:

*Bir ülke ki toprağında başka ilin gözü yok,
Her ferdinde mefkûre bir, lisan, adet, din birdir...
Mebusânı temiz, orda Boşo'ların sözü yok,
Hududunda yevlâtları seve seve can verir,
Yey Türkoğlu, işte senin orasıdır vatanın!¹¹*

Tarjimasi:

*Bir o'lkaki, tuprog'ida boshqa elning ko'zi yo'q,
Har insonda mafkura bir, til-u odat, din birdir.
Xalq noibi pokdil, unda amaldorlar so'zi yo'q,
Tuprog'ida avlodlari behalovat ko'z yumar.
Ey turk o'g'lon, mana sening jannatmakon vataning!*

Tahlillardan ko'rinadiki, shoir she'riyatida turkiy xalqning mavqeini yanada yuksaltirish, uni dunyoga tanitish haqidagi qarashlar yaqqol seziladi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, uning "Vatan" she'ri o'zbek shoirlari ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu haqda adabiyotshunos P.Kenjayeve ham o'z fikrlarini bildirgan: Turk va o'zbek she'riyatidagi ana shunday uslubiy mushtaraklik Ziyo Go'kalp va Oybek ijodida ham kuzatiladi. Shoir "Bir o'lkaki" anaforasi bilan har bir bandda she'r ma'nosini kuchaytirishga erishadi. Aynan mana shu kuchaytirishda o'zbek adabiyotining ijodga tashna shoiri Oybek she'riyati esga tushadi. Uning vatan haqidagi "O'zbekiston" she'rida ham xuddi shunday satrlar takrorini kuzatamiz.¹² Oybek va Ziyo Go'kalp ijodiga oid manbalarni ko'zdan kechirganimizda, shaxsan ular ko'rishmagan, lekin Oybek turk she'riyatidan yaxshi xabardor bo'lgan. Xususan, bunday ta'sirlanish jarayonini

¹⁰ Akyüz K. Batı Tesirinde Türk Şiiri Antalojisi (1860-1923). İstanbul-1971. -S.692.

¹¹ Akyüz K. Batı Tesirinde Türk Şiiri Antalojisi (1860-1923). İstanbul-1971. -S.704.

¹² Kenjayeve P. Zamonaviy o'zbek va turk she'riyatida uslub tipologiyasi // "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusida gi Xalqaro konferensiya materiallari. T.2018. –B.385.

akademik N.Karimov ham shunday izohlaydi: Oybek 1922-yildan boshlab she'riyatda tetapoya qila boshlagan paytda Cho'lpon va yangi turk she'riyati namoyandalarining asarlari yoshlar o'rtasida mashhur edi. U 20-yillarda, boshqa tengdoshlari qatori, ana shu she'riyat jilg'alaridan bahramand bo'ldi.¹³

Shoir qalbidagi turkchilik g'oyasi jo'sh uradi, bu g'oya har qadamda shoirni buyuk kelajak sari yetaklaydi. Uning "Turkchilik" she'ri ham ana shunday orzu-armonlar natijasida yozilgan:

*Garbin dinler sesini, garba sesler dinletir,
Kalbini de söyletir, kalbini de inletir;*

*Lâkin asla unutmaz Oğuz Han 'in yevlâdı
Tûrân denen o yurdu, Tûrân denen o adı.*

*Yey Türklüğün düşmanı, kitâblara göz gezdir:
Fârâbiler kimlerdir, Uluğ Beğler kimlerdir?*

*Kimlerdendir unutma büyük İbni Sînâ 'lar,
Kimlerdendir unutma, kahraman Atillâ 'lar...*

*Türkler bu gün bir kavim, lâkin yarın bir millet,
Ona uymayanlara benden yüce bir lâ'net...*

*Türk hiç gerie gitmez, Türk irticâ 'ı bilmez,
Lâkin büyük kalbinden "Altun devri" silinmez!¹⁴*

Tarjimasi:

*G'arbning tinglar ovozin, g'arbga saslar tinglatar,
Qalbidagini ham aytar, qalbini ham yig'atar.*

*Lekin aslo unutmas O'g'uzxonning avlodi,
Turon degan u yurtini, Turon degan u nomni.*

*Ey turkiylar dushmani, tarixga bir nazar sol,
Farobiylar, Ulug'beklar kim bo'lganin bilib ol.*

*Kimlardandir unutma buyuk Ibn Sinolar,
Kimlardandir unutma, qahramon Atillalar.*

*Turklar bu kun bir qavm, bo'lur erta bir millat,
Unga bo'ysunmaganga mendan bo'lsin ming la'nat.*

*Turklar orqaga qaytmas, hatto xayol ham qilmas,
Bunday "Oltin davr"ni qalbidan hech o'chirmas.*

¹³ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari (birinchi kitob). O'zbekiston nashriyoti. T.: 2008, -B.319.

¹⁴ Akyüz K. Batı Tesirinde Türk Şiiri Antalojisi (1860-1923). İstanbul-1971. -S.692.

Turkiy xalqlarning yirik sarkardasi, yo'lboshchilari, buyuk xoqonlari Atilla va O'g'uzxon shoirning turk xalqini tarannum etuvchi aksariyat she'rlarida ko'zga tashlanadi. Yuqorida keltirilgan misolda ham turklar ularning avlodi, tarixning buyuk qahramonlari ekani bilan faxrlanadi. Turkchilikning ibtidosini turk xalqining ajdodlarini tilga olish bilan boshlaydi va Farobiy, Ulug'bek singari mutafakkir olimlarning kim ekanligini, ularni biz avlodlar hech qachon unutmasligimiz, ulardan ibrat olishimiz kerakligini uqtiradi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, Ziyo Go'kalpning "Turkchilik asoslari" (1924) kitobida islomgacha bo'lgan milliy xususiyatlarimiz yaxshi yoritilgan. Uningcha, qadim yunonlar haykaltaroshlikda, rimliklar huquqda, yahud va arab dinda, fransuzlar adabiyotda, anglo-sakslar iqtisodda, olmonlar musiqa va falsafada shuhrat topgan bo'lsalar, turklar go'zal xulqlari bilan dovuq qozonganlar ¹⁵. Shoir asarlarining o'zbek, rus, fransuz, nemis, ingliz va mo'g'ul tillariga tarjima qilinishi ham uning ijodiga bo'lgan qiziqishning yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Shoirning vatanparvarlik ruhida tarbiya topishida o'zidan oldingi millatparvar shoirlarning ta'siri juda katta bo'lgan. Mehmed Ziyo Go'kalp 1876-yilda Diyorbakirda tavallud topgan. Boshlang'ich va o'rta ta'limni Diyorbakirdagi maktablarda oladi. U otasidan erta ayriladi va amakisining qo'lida tarbiya topadi. Mehmed Ziyo Go'kalp arab va fors tillarini, shuningdek, islom falsafasi tarixini o'rganadi hamda o'zi mustaqil ravishda fransuz tilini ham o'rganadi. U Istanbulga borib o'qishini davom ettirmoqchi bo'ladi, ammo amakisi uning ketishiga qarshilik qilib qiziga uylantirmoqchi bo'ladi. Shuningdek, u boshlang'ich maktabda o'qiyotganida bayram kuni "Podshohim, umringiz uzoq bo'lsin!" deyish o'rniga "Xalqim, umringiz uzoq bo'lsin!" deb noto'g'ri aytgani uchun uyiga qo'ng'iroq bo'ladi. Shu azoblarni bartaraf qilish uchun o'zini o'ldirmoqchi bo'lib o'ziga o'zi o'q uzadi. Ammo o'q nishonga to'g'ri tegmagani sababli o'lim ostonasidan qaytib keladi va do'sti yordamida Istanbulga qochib ketadi. Yonida bir chaqa ham bo'lmagani sababli universitetda o'qiy olmagani Go'kalp "Baytar maktab-i oliy" internatiga qabul qilinadi. Maktabni bitirayotgan paytida Istibdod idorasi qoshida ochilgan yashirin jamiyat guruhlarining ishlariga qiziqqa boshlaydi va ichki ishlar ta'qibiga uchraydi. Shuningdek, Diyorbakir hokimi Xolid Beyga tegishli jurnalda mansabdorning qilgan ishlarini muhokama qilgani uchun 9 oy qamoq jazosi tayinlanadi, jazo muddati tugagandan so'ng Diyorbakirga surgun qilinadi. Amakisi ikki yil avval, vafotidan oldin qizini Ziyoga vasiyat qilib ketgan bo'ladi.

Ziyo Go'kalp turk tilini boyitish, madaniy tilga aylantirish uchun xalq og'zaki ijodidan hamda eski turkiy asarlardan to'plamlar qilish tarafdori edi. Ayniqsa, hozirda tarixga aylangan, turkiy tildagi o'lik so'zlarning yana qayta jonlanishini va boshqa qardosh turkiy xalq lahjalaridan so'z olinishini istamaydi. To'plamlar yordamida qo'lga kiritilgan turkcha so'zlar yaratilishini yoki o'sha so'zga mos so'z topolmagan taqdirdagina arab va fors tiliga murojaat qilish kerakligini aytadi. Barcha xalqlar qo'llaydigan so'zlarni ya'ni ilmiy va texnikaviy so'zlarni biz ham qo'llasak xato bo'lmaydi, lekin baribir turk tilining ilmiy va kamchiliklardan xoli grammatika kitobi va lug'atini yaratishimiz kerak, degan fikrni ilgari suradi. Hatto u o'z ona tilisiga oid she'rlar ham yozadi.

Adabiyot sohasida esa milliy va zamonaviy adabiyotni o'rganishda va davom ettirishda xalq adabiyoti va G'arb adabiyotini to'liq o'rganish kerakligini uqtiradi. Birinchi navbatda, o'z

¹⁵ Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. "Ma'naviyat" nashr., T-2002. -B.73.

xalqi adabiyotini va milliy urf-odatlarini aks ettirish kerakligini aytadi. Keyin esa G'arb adabiyotiga murojaat qilish kerakligini istaydi. Ya'ni har bir xalq o'z xalqining adabiyotini bilmasdan turib boshqa xalqlarning adabiyotini qanday tushunadi degan savolni o'rtaga tashlaydi.

Shuningdek, Ziyó Go'kalp bolaligida esida qolgan xotiralarini shunday eslaydi: Nomiq Kamolning asarlaridan, hatto taqiqlangan va nashr etilmagan asarlari orqali ham tanir edim. Ammo uning juda mashhur ustoz va buyuk inson ekanligini bilmas edim. Otam menga uning kurashlarini, shijoatini, zulmlarga uchraganini, qahramonona ko'rsatgan qarshiliklarini ta'sirli va qayg'uli holatda so'zlab berdi va dedi: "Endi sen bu insonning ortidan ketasan. Unga o'xshagan vatanparvar va ozodlik kuychisi bo'lasan!"¹⁶ Otasining bu vasiyati shoirga o'zgacha ruh bag'ishlaydi va har doim bu so'zlarni eslaganida ruhida shijoat, Vatanga muhabbat, ertasiga ishonch, e'tiqod, hurriyatga intilish qayta-qayta namoyon bo'lar edi. Uning otasi kelajakda o'g'lining millatparvar, ma'rifatparvar va ideal shaxs sifatida shakllanishi uchun bor imkoniyatini uning ta'lim olishiga qaratdi, yangi usuldagi maktablarda o'qitdi.

Ziyó Go'kalp G'arb adabiyotiga ham qiziqdi, ulardagi she'riy san'atlar, nazm va nasrning nazariy qoidalari, umuman olganda, adabiy janrlarning bir-biridan farqli jihatlarini o'rganib chiqib turk adabiyotiga mos va xos janrlarini qo'llash kerakligini, shu bilan birga aruz vaznining o'rniga barmoq vaznini qo'llash va uning xalqqa ma'qul bo'lgan shaklini (5+6) tanlash kerakligini, agar bu she'riy vazn xalqqa manzur bo'lmasa, milliy she'r bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bo'lajak shoir dastlabki she'rlarini Diyorbakirda yoza boshlagan. Uning ilk she'ri 1894-yilda yozilgan "Inqilob qo'shig'i" bo'lib, bu she'r 1896-yilda Londonda nashr qilingan. Bundan keyin ikkita g'azal yozadi. Bu g'azallarni aruz vaznida yozadi, keyinchalik barmoq vaznida she'rlar mashq qiladi. Ziyó Go'kalpning she'rlarida "milliy qahramon", "buyuk bir dohiy" sifati aks ettiriladi, ya'ni Mustafó Kamol Posho mavzusi 1922-1923-yillarni o'z ichiga oladi. Xususan, 1922-yilda kichik to'plamda nashr qilingan "Qo'lsiz xonim" nomli ertakning oxirgi qismlarida Mustafó Kamolni tilga oladi.

*Türk'ün kollarıydı: İzmir, Yedirne!
Bunları kopardı şom Üvey Anne*

*Yeğeni Yunan'a yetti armağan,
Kurtardı onu bir Millî Kahraman.
Tanrımız yüceltsin O Kahramanı,
Daim mes'ut yetsin Hilâl Sultan'ı!*¹⁷

Tarjimasi:
*Turkning qo'li edi İzmir, Edirna,
Tortib oldi endi o'gay bir ona*

*Jiyani Yunonga yetdi armug'on,
Qutqardi uni milliy qahramon.*

*Alloh ulug'lasin bu qahramonni,
Doimo asragay Hilol Sultonni.*

¹⁶ Korkmaz A. Ziya Gökalp. Aksiyonu Meşrutiyet ve Cumhuriyet üzerindeki Tesirleri. Milli Eğitim Basımevi, İstanbul-1994. -S.43.

¹⁷ Akyüz K. Batı tesirinde Türk şiiri antalojisi (1860-1923). İstanbul.1971. -S.684.

Ma'lumki, har bir davlatning tirgak shaharlari bo'ladi. Shoir ham bu borada turklarning tirgak shaharlari Izmir va Edirna ekanligi, aynan shu shaharni o'gay ona olib, jiyani yunonlarga hadya qilganini va so'ngida bir qahramon kelib qutqarganini aytadi. Bu qahramonni Alloh asrashi uchun duolar o'qishadi. Go'kalpning ba'zan yengil, ba'zan esa lirizmga oid o'rgatuvchi xarakterdagi she'rlari asl quvvatlarini sof va jonli bir tilda eng yoqimli ya'ni o'ziga yoqadigan uslubdan oladi. Bu til va uslub yangi bir atmosfera yaratish orqali muvaffaqiyatga uchradi.

Shoirning "Turon" (Türân), "Inqilob qo'shig'i" (İhtilâl Şarkısı), "Hurriyat madhiyasi" (Hürriyet Marşı), "Turkchilik" (Türklük), "Jang qo'shig'i" (Cenk Türküsü), "Shahid harami" (Şehid Haremi), "Qani olg'a" (Durma Vur!), "O'tukan mamlakati" (Ötüken Ülkesi), "Usmon G'oziy Qurultoyda" (Osman Gazi Kurultay'da), "Chanoqqal'a" (Çanakkale), "Millat" (Millet), "Vatan" (Vatan), "Axloq" (Ahlak), "Til" (Lisân), "Madaniyat" (Medeniyet), "Dorilfunun" (Dârül fünûn), "San'at" (Sanat), "Ikkinchi arzihol" (İkinci İstidâ), "Izmirda" (İzmir'de) singari she'rlari bugungacha kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi.

Shuningdek, o'g'uz turklariga oid milliy dostonchilikning parchalari va Dada Qo'rqut kitobidan foydalangan holda masal yoki hikoya uslubida yozilgan bir qancha manzumalarni "Qizil olma" (1914) va qisman "Oltin nur" (1923) kitoblarida jamladi¹⁸. Turk millatiga ijtimoiy, ilmiy, madaniy, diniy va axloqiy asarlarni o'rgatish va targ'ib etish maqsadida qalamga olgan she'rlarini "Yangi hayot" (1918) kitobida jamladi.

XULOSA

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Go'kalp faqatgina adabiyotga emas, balki adabiyotni yanada rivojlantirish va hammaga tushunarli bo'lishi uchun tilga ham juda katta ahamiyat bergan va bunda o'z maqsadiga erisha olgan. Chunki, u yozgan she'rlar nafaqat adabiyotshunoslar uchun, balki xalq uchun ham tushunarli bo'lgan. U turk tilini o'z imkoniyatlari asosida rivojlantirish va xorijiy tillardan iloji boricha kamroq so'zlar olishga targ'ib etdi.

Ziyo Go'kalp ijodi, uning adabiy merosi nafaqat turk adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham bugungacha tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, uning vatan madhini kuylovchi she'rlari xalq qalbidan joy olib, tillarda yod bo'lgan. Shoirning xuddi Mehmet Akif Erso'y singari xalqning real hayotini, dardlarini, vatanga bo'lgan muhabbatini, umuman olganda vatanni himoya qilishga chorlovchi she'rlari ashula qilib kuylanib kelinmoqda. Uning lirik asarlarida o'z kechinmalari va his-tuyg'ularidan tashqari, obyektiv haqiqatni aks ettiruvchi tarixiy obrazlar ham yaqqol kuzatiladi. Tarixda turk xalqining yuksalishida va dunyoga tanilishida o'z o'rniga ega xoqonlar, yirik sarkardalar Ziyo Go'kalp she'riyatining asosiy lirik qahramonlari hisoblanadi.

Ziyo Go'kalp zamonaviy turk adabiyotini o'zining yangicha qarashlari va fikrlari bilan boyitdi. Shuningdek, uning ijodida folklor, devon adabiyotining namunalari ham uchraydi, shu bilan birga zamonaviy adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, pedagogikaga oid asarlari ham bor. U butun bir turk xalqi uchun qayg'urdi, turk xalqining qalbidagi kechinmalarni she'rga soldi, turli sharoitlarda yuzaga kelgan his-tuyg'ulari, fikriy qarashlarini asarlari mohiyatiga singirdi.

¹⁸ Akyüz K. Batı Tesirinde Türk Şiiri Antalojisi (1860-1923). İstanbul-1971. -S.684.